

**BOJXONA KO'RIGINING HUQUQIY ASOSLARI, AMALGA OSHIRISH
MEXANIZMLARI VA TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI****Hamroyev Ulug'bek Rustamovich****Bojxona qo'mitasi Bojxona instituti dotsenti, t.f.f.d. (PhD)****E-mail: uzbekiston@inbox.ru****Abduraxmanov Zafar Batirovich****Bojxona instituti Matematika va axborot
texnologiyalari kafedrası katta o'qituvchisi.****E-mail: ucell1@mail.ru**<https://doi.org/10.5281/zenodo.21059849>**Kirish**

Dolzarbli. Jahon iqtisodiyotining globallasuvi, xalqaro savdo hajmining keskin o'sishi va transchegaraviy harakatlanuvchi tovar oqimlarining murakkablashuvi sharoitida bojxona nazorati tizimi oldida turgan vazifalar ham murakkablashmoqda. Bojxona chegarasi orqali olib o'tiladigan tovarlar va transport vositalarining qonuniy aylanishini ta'minlash, kontrabanda, giyohvand moddalar, qurol-yarog' va boshqa taqiqlangan tovarlarning mamlakat hududiga kirib kelishiga yo'l qo'ymaslik bojxona organlarining asosiy vazifalaridan biridir. Mazkur vazifani amalga oshirishda bojxona nazoratining eng muhim va samarali shakllaridan biri – bojxona ko'rigidir. Bojxona ko'rigini o'tkazish tartibini takomillashtirish, uni zamonaviy texnologiyalar asosida rivojlantirish, xalqaro standartlar va ilg'or xorijiy tajribalarga moslashtirish bugungi kunning dolzarb masalalaridan hisoblanadi.

Asosiy qism**1. Bojxona ko'rigining huquqiy mohiyati va turlari.**

Bojxona ko'rigi bojxona nazoratining asosiy shakllaridan biri sifatida O'zbekiston Respublikasining Bojxona kodeksi hamda boshqa normativ-huquqiy hujjatlar bilan tartibga solinadi. O'zbekiston Respublikasi Bojxona kodeksining 195-moddasiga muvofiq, bojxona ko'rigi qo'yilgan plombalarni, muhrlarni yoki bojxona identifikatsiyalashining boshqa vositalarini buzgan holda, tekshirilayotgan ob'ektlarni va ularning qismlarini bo'laklarga ajratib, demontaj qilib yoki boshqa yo'llar bilan ularning butligini buzib, tovarlarning o'ramini yoki transport vositasining yuk joylanadigan bo'limini yoxud idishlarini, konteynerlarni va tovarlar bo'lgan yoki bo'lishi ehtimoli bo'lgan boshqa joylarni ochishni nazarda tutadi.

Bojxona ko'rigining huquqiy mohiyati quyidagi jihatlarda namoyon bo'ladi:

birinchidan, u bojxona organlariga tovarlar to'g'risidagi ma'lumotlarning to'liq va ishonchli ekanligini tekshirish imkonini beradi;

ikkinchidan, u tovarlarni identifikatsiyalash, ularning miqdori, nomi, xususiyatlari va boshqa ko'rsatkichlarini aniqlashga xizmat qiladi;

uchinchidan, u bojxona qonunchiligi buzilishining oldini olish va aniqlash vositasi hisoblanadi.

Bojxona ko'rigi o'zining hajmi va o'tkazilish xususiyatiga ko'ra bir necha turlarga bo'linadi:

to'liq bojxona ko'rigi – tovarlarning butun partiyasini, barcha yuk joylarini ochib tekshirishni nazarda tutadi;

qisman bojxona ko'rigi – tovarlarning bir qismini, ayrim yuk joylarini tanlab tekshirishni anglatadi;

takroriy bojxona ko'rigi – avval o'tkazilgan ko'rik natijalarining to'g'riligini tekshirish maqsadida o'tkaziladi;

identifikatsiyalash ko'rigi – tovarlarning bojxona rejimiga qo'yilgan talablarga muvofiqligini aniqlash uchun o'tkaziladi [1].

2. Bojxona ko'rigini o'tkazish tartibi va ishtirokchilari

Bojxona ko'rigini o'tkazish tartibi

Bojxona ko'rigi qonunchilikda belgilangan qat'iy tartib asosida amalga oshiriladi. Uning asosiy bosqichlari va ishtirokchilari quyidagilardan iborat.

O'tkazish vaqti. Qoida tariqasida, bojxona ko'rigi tovarlarga oid bojxona deklaratsiyasi qabul qilinganidan keyin o'tkaziladi. Biroq qonunchilikda ayrim holatlarda deklaratsiya qabul qilinishidan oldin ham bojxona ko'rigini amalga oshirish imkoniyati nazarda tutilgan. Jumladan:

- tovarlarni identifikatsiya qilish zarurati yuzaga kelganda;
- tovarlarning holati va xususiyatlari to'g'risida yetarli ma'lumotlar mavjud bo'lmaganda;
- xavflarni boshqarish tizimi asosida tanlab tekshirish choralari qo'llanilganda;
- tez buziladigan tovarlar, tirik hayvonlar, radioaktiv materiallar va boshqa maxsus toifadagi tovarlar olib o'tilayotganda.

Ko'rik ishtirokchilari. Bojxona ko'rigini o'tkazishda quyidagi shaxslar ishtirok etadi:

1. Deklaratsiyalovchi shaxs. Deklarant ko'rik jarayonida ishtirok etishi va bojxona organlariga zarur yordam ko'rsatishi lozim. Xususan, u yuk joylarini ochish, tovarlarni ko'rsatish va ularni ajratish kabi harakatlarni amalga oshiradi. Deklarant shaxsan ishtirok eta olmagan taqdirda, uning vakolatli vakili ishtirok etishi mumkin.

2. Bojxona organining mansabdor shaxsi. Ko'rikni bevosita amalga oshiruvchi va uning natijalari uchun mas'ul bo'lgan xodim hisoblanadi.

3. Xolislar. Agar deklarant yoki uning vakili bojxona organining chaqiruviga qaramay belgilangan muddatda kelmasa, bojxona ko'rigi kamida ikki nafar xolis ishtirokida o'tkaziladi. Xolislar ko'rik jarayonining xolisligi va qonuniyligini ta'minlash maqsadida jalb qilinadi.

Maxsus holatlarda ko'rik o'tkazish tartibi. Ayrim tovarlarga nisbatan bojxona ko'rigini o'tkazishning alohida tartibi belgilangan:

- tirik hayvonlar va tez buziladigan tovarlar ularning sifatini saqlab qolish maqsadida birinchi navbatda ko'rikdan o'tkaziladi;
- xavfli yoki o'ziga xos noxush hid tarqatuvchi tovarlar maxsus xavfsizlik choralari ko'rilgan holda tekshiriladi;
- harbiy mahsulotlar va maxsus texnika tegishli davlat organlari vakillari ishtirokida ko'rikdan o'tkaziladi;
- xalqaro pochta jo'natmalari aloqa operatorlari ishtirokida belgilangan maxsus tartib asosida tekshiriladi.

Bojxona ko'rigi natijalarini rasmiylashtirish. Bojxona ko'rigi yakunlanganidan so'ng uning natijalari bo'yicha belgilangan shaklda dalolatnoma rasmiylashtiriladi. Dalolatnomada quyidagi ma'lumotlar aks ettiriladi:

- ko'rik o'tkazilgan sana va joy;
- ko'rikda ishtirok etgan shaxslar to'g'risidagi ma'lumotlar;
- ko'rikdan o'tkazilgan tovarlarning tavsifi;
- ko'rik jarayonida aniqlangan holatlar;
- tovarlarning miqdori va holati;

- olingan namunalar va sinovlar to'g'risidagi ma'lumotlar (agar bunday harakatlar amalga oshirilgan bo'lsa).

Dalolatnomaning bir nusxasi deklarantga yoki uning vakolatli vakiliga topshiriladi. Ushbu hujjat bojxona ko'rigining qonunchilik talablariga muvofiq o'tkazilganligini va uning natijalarini tasdiqlovchi asosiy protsessual hujjat hisoblanadi [2].

3. Bojxona ko'rigini takomillashtirish: raqamlashtirish va xorijiy tajriba

Zamonaviy globallashtirish sharoitida tashqi savdo hajmining ortishi, tovar va transport oqimlarining jadallashuvi hamda transchegaraviy xavflarning ko'payishi bojxona nazorati tizimini takomillashtirishni talab etmoqda. Shu nuqtai nazardan, bojxona ko'rigini raqamlashtirish, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va xavflarni intellektual tahlil qilish mexanizmlarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda rivojlangan davlatlar bojxona ma'muriyatlari tomonidan qo'llanilayotgan innovatsion yechimlar bojxona ko'rigining samaradorligini oshirish, inson omilini kamaytirish hamda tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchilari uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga xizmat qilmoqda.

Xavflarni boshqarish tizimi (XBT). Bojxona nazoratini tashkil etishning zamonaviy va samarali usullaridan biri xavflarni boshqarish tizimi hisoblanadi. Mazkur tizim bojxona organlariga barcha tovarlar va transport vositalarini to'liq tekshirish o'rniga, xavf darajasi yuqori bo'lgan ob'ektlarni aniqlash va ularga nisbatan maqsadli nazorat choralarini qo'llash imkonini beradi. Natijada nazorat resurslaridan oqilona foydalanish ta'minlanadi hamda tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchilari uchun ma'muriy yuk kamayadi.

Xavflarni boshqarish tizimining asosiy afzalliklari quyidagilardan iborat:

- bojxona nazorati samaradorligini oshirish;
- xavf darajasi past bo'lgan tovarlar harakatini tezlashtirish;
- “yashil yo'lak” mexanizmidan foydalanuvchi tovarlar ulushini ko'paytirish;
- tadbirkorlik sub'ektlarining vaqt va moliyaviy xarajatlarini kamaytirish;
- inson omili ta'sirini qisqartirish va korrupsiyaviy xavflarni pasaytirish;
- bojxona organlari resurslarini yuqori xavfli yo'nalishlarga yo'naltirish imkoniyatini yaratish.

So'nggi yillarda sun'iy intellekt, katta ma'lumotlar (Big Data) tahlili va mashinali o'qitish texnologiyalarining rivojlanishi xavflarni boshqarish tizimlarining imkoniyatlarini yanada kengaytirmoqda. Bu esa xavflarni aniqlash aniqligini oshirish, huquqbuzarliklarni oldindan prognoz qilish va bojxona ko'rigi samaradorligini yuqori darajaga ko'tarish imkonini bermoqda.

Xorijiy tajribalar tahlili. Jahonning rivojlangan davlatlari bojxona ko'rigini tashkil etish va amalga oshirishda raqamli texnologiyalar, avtomatlashtirilgan tahlil tizimlari hamda zamonaviy inspeksion-ko'rik vositalaridan keng foydalanmoqda. Ularning tajribasini o'rganish milliy bojxona tizimini takomillashtirish, xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish va bojxona rasmiylashtiruv jarayonlarini soddalashtirish nuqtai nazaridan muhim ahamiyatga ega. Quyida Yaponiya, AQSh, Yevropa Ittifoqi va Birlashgan Arab Amirliklarining mazkur sohadagi ilg'or tajribalari tahlil qilinadi.

Yaponiya tajribasi. Yaponiya bojxona xizmati bojxona operatsiyalarini avtomatlashtirish texnologiyalarini keng joriy etgan. Mamlakatda **NACCS (Nippon Automated Cargo and Port Consolidated System)** avtomatlashtirilgan axborot tizimi faoliyat yuritadi. Ushbu tizim orqali tovarlar va transport vositalari to'g'risidagi ma'lumotlar elektron shaklda qabul qilinadi, qayta ishlanadi hamda xavflarni boshqarish tizimi asosida tahlil qilinib, bojxona ko'rigini o'tkazish zarurati yuzasidan qaror qabul qilinadi.

NACCS tizimi yuk Yaponiya hududiga yetib kelishidan oldin bojxona hujjatlarini elektron tarzda taqdim etish va qayta ishlash imkonini beradi. Tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchilari hujjatlarni oldindan tizimga yuklaydilar, bojxona organlari esa deklaratsiyalarni elektron shaklda ko'rib chiqib, dastlabki qaror qabul qiladilar. Bu esa bojxona rasmiylashtiruv jarayonini tezlashtirish va chegaradagi kechikishlarni kamaytirishga xizmat qiladi [3].

AQSh tajribasi. Qo'shma Shtatlarda bojxona nazorati jarayonlarida sun'iy intellekt (SI) va katta ma'lumotlar (Big Data) tahlili texnologiyalaridan keng foydalaniladi. Mamlakatda qo'llanilayotgan “Automated Targeting System” (ATS) tizimi xalqaro savdo oqimlari, yuklar va tashuvchilar haqidagi ma'lumotlarni real vaqt rejimida tahlil qilib, xavf darajasi yuqori bo'lgan yuklarni aniqlash hamda ehtimoliy huquqbuzarliklarni oldindan prognoz qilish imkonini beradi. Shuningdek, AQShda “Smart Border” dasturi doirasida yangi avlod skanerlovchi qurilmalari joriy etilgan bo'lib, ular yuklarni ochmasdan turib tekshirish va ularning tarkibini aniqlash imkoniyatini yaratadi.

ATS AQShning asosiy xavflarni boshqarish axborot tizimlaridan biri bo'lib, turli davlat organlari ma'lumotlar bazalarini integratsiya qilgan holda xavflarni aniqlash, baholash va prognoz qilish vazifasini bajaradi. Tizim bojxona va chegara xavflarini tahlil qilish, kontrabanda, terrorizm va boshqa huquqbuzarliklarning oldini olishda muhim vosita hisoblanadi [4].

Yevropa Ittifoqi tajribasi. Yevropa Ittifoqi (YeI) davlatlarida bojxona nazoratining yagona raqamli muhitini shakllantirish maqsadida “EU Customs Single Window” tizimi joriy etilgan. Ushbu tizim orqali a'zo davlatlarning bojxona organlari va boshqa vakolatli idoralari o'rtasida tezkor ma'lumot almashinuvi ta'minlanadi hamda nazorat tadbirlari muvofiqlashtiriladi. Shuningdek, YeI'da “Authorised Economic Operator” (AEO) – Vakolatli iqtisodiy operator instituti keng rivojlangan bo'lib, mazkur maqomga ega bo'lgan kompaniyalarga bojxona rasmiylashtiruvini soddalashtirish, tekshiruvlar sonini qisqartirish va tovarlarni tezkor rasmiylashtirish kabi imtiyozlar taqdim etiladi [5].

Birlashgan Arab Amirliklari tajribasi. Birlashgan Arab Amirliklarida, xususan, Dubay bojxona xizmati bojxona nazoratini raqamlashtirish sohasida ilg'or tajribani shakllantirgan. Bu yerda “Mirsal 2” raqamli platformasi faoliyat yuritib, tashqi savdo operatsiyalari va tovarlar harakatiga oid barcha ma'lumotlarni yagona elektron tizimda jamlash imkonini beradi. Shu bilan birga, Dubay portlarida yuqori aniqlikka ega rentgen va gamma-nur skanerlari o'rnatilgan bo'lib, ular konteynerlar hamda yuklarni ochmasdan turib tekshirish va xavfli ob'ektlarni aniqlash imkoniyatini ta'minlaydi [6].

Xulosa va takliflar

Xulosa qilib aytganda, bojxona ko'rigi davlatning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash, kontrabanda va boshqa bojxona qonunchiligi buzilishlarining oldini olishga qaratilgan muhim bojxona nazorati shakli hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasida bojxona ko'rigini amalga oshirishning huquqiy asoslari shakllantirilgan bo'lib, ularda deklaratsiyalovchi shaxslarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, ko'rik jarayonining shaffofligini ta'minlash hamda uning natijalarini belgilangan tartibda rasmiylashtirishga oid muhim huquqiy kafolatlar nazarda tutilgan.

Shu bilan birga, tashqi iqtisodiy faoliyat hajmining ortishi, raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi va xalqaro savdo jarayonlarining murakkablashuvi bojxona ko'rigi tizimini yanada takomillashtirishni talab etmoqda. Bu borada rivojlangan davlatlar tajribasini o'rganish va ularning samarali amaliyotlarini milliy tizimga moslashtirgan holda joriy etish muhim ahamiyatga ega.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

1. Xavflarni boshqarish tizimini takomillashtirish. Xavflarni tahlil qilish jarayonlariga sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etish, ma'lumotlar bazalarini integratsiya qilish va tahliliy imkoniyatlarni kengaytirish orqali xavf darajasi past bo'lgan tovarlar uchun soddalashtirilgan tartiblarni keng qo'llash maqsadga muvofiq.

2. Bojxona nazoratining texnik bazasini modernizatsiya qilish. Bojxona postlarini zamonaviy inspeksion-ko'rik majmualari, rentgen va skanerlovchi qurilmalar bilan jihozlash hamda mavjud texnik vositalarni muntazam yangilab borish zarur. Bu tovarlarni ochmasdan turib tekshirish imkoniyatlarini kengaytirib, nazorat samaradorligini oshiradi.

3. Vakolatli iqtisodiy operatorlar institutini rivojlantirish. Vakolatli iqtisodiy operator maqomiga ega tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchilari uchun bojxona rasmiylashtiruvini yanada soddalashtirish, tekshiruvlar sonini qisqartirish va ishonchli tadbirkorlar uchun qo'shimcha imtiyozlar joriy etish maqsadga muvofiq.

4. Xalqaro hamkorlikni kuchaytirish. Xorijiy davlatlarning bojxona ma'muriyatlari bilan axborot almashinuvini rivojlantirish, ma'lumotlarni real vaqt rejimida olish imkoniyatlarini kengaytirish hamda xalqaro tranzit operatsiyalari bo'yicha o'zaro hamkorlik mexanizmlarini takomillashtirish zarur.

5. Bojxona xodimlarining kasbiy salohiyatini oshirish. Bojxona xodimlarini zamonaviy raqamli texnologiyalar, xavflarni boshqarish tizimlari va inspeksion-ko'rik vositalari bilan ishlash bo'yicha muntazam o'qitish, ularning malakasini oshirish hamda xalqaro tajriba almashinuv dasturlarida ishtirokini kengaytirish lozim.

Yuqoridagi takliflarning amalga oshirilishi O'zbekiston Respublikasida bojxona ko'rigi tizimining samaradorligini oshirish, uni xalqaro standartlarga yaqinlashtirish, tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchilari uchun qulay shart-sharoitlar yaratish hamda davlatning iqtisodiy xavfsizligini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi..

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. O'zbekiston Respublikasining Bojxona kodeksi. – Toshkent, 2020.
2. World Customs Organization. SAFE Framework of Standards. – Brussels, 2021.
3. www.uza.uz - NACCS japan rasmiy sayti.
4. “Automated Targeting System” rasmiy internet sahifasi
5. “Mirsal-2” UAE rasmiy internet sahifasi
6. “Authorised Economic Operator” (AEO) Internet internet sahifasi